

AKADEMIK LITSEYLARDA ADABIYOT O'QUV FANI DARSLIGIDA MUSTAQIL O'RGANISHGA TAVSIYA ETILGAN ASARLAR TAHLILI

Urazova Nargiza

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Toshkent shahri xalqaro Vestminster universiteti
akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada akademik litseylarda adabiyot o'quv fanida mustaqil o'qishga tavsiya etilgan badiiy asarlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish usullari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot fani, mustaqil o'qish, badiiy asar, akademik litsey, pedagogik texnologiyalar.

АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, РЕКОМЕНДОВАННЫХ ДЛЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ В УЧЕБНИКАХ ЛИТЕРАТУРЫ АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ.

Уразова Наргиза

Доктор философии в области педагогических наук.

Преподаватель родного языка и литературы в Академическом лицее
Международного Вестминстерского университета в Ташкенте.

Аннотация: В данной научной статье анализируются методы преподавания литературных произведений, рекомендованных для самостоятельного изучения в рамках предмета «Литература» в академических лицеях, с использованием современных технологий.

Ключевые слова: Литература, самостоятельное изучение, литературное произведение, академический лицей, педагогические технологии.

ANALYSIS OF WORKS RECOMMENDED FOR INDEPENDENT STUDY IN LITERATURE TEXTBOOKS IN ACADEMIC LYCEUMS

Urazova Nargiza

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences.

Teacher of native language and literature at the Academic Lyceum of the International
Westminster University in Tashkent.

Abstract: This scientific article analyzes the methods of teaching literary works recommended for independent study in the subject of literature in academic lyceums using modern technologies.

Keywords: Literary science, independent study, literary work, academic lyceum, pedagogical technologies.

Kirish.

Globalashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bugungi davrda ta'lim tizimi zimmasiga har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlay oladigan va zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega shaxsni tarbiyalash vazifasi yuklatilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni puxta bilim bilan qurollantirish, ularda ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish ta'limning eng muhim talablaridan biriga aylanib bormoqda. Shu bois zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini tayyor qoliplarga moslashtirishni emas, balki uning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyat, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi sifatlar shakllanadi. Ayniqsa, adabiyot darslarida bu yondashuvning ahamiyati nihoyatda katta. Chunki badiiy asar inson ruhiyati, kechinmalari va ma'naviy olamini aks ettiruvchi eng muhim vositalardan biridir.

Adabiyot fanini o'qitishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatish pedagogdan katta mahorat talab qiladi. O'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olishi, uning fikriga hurmat bilan yondashishi va erkin mushohada yuritishiga imkon yaratishi zarur. Shuningdek, ta'lim jarayonida pedagog - o'quvchi hamkorligini yo'lga qo'yish, kichik guruhlar bilan ishlash, bahs-munozaralar tashkil etish va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning adabiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida quyidagi innovatsion metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlar olib borish;
- debat va bahs-munozaralar tashkil etish;
- evristik suhbat;
- "Aqliy hujum" metodi;
- kichik guruhlarda ishlash;
- "T – texnologiyasi";
- "Venn diagrammasi"
- Key-stadi
- My Test

- Koohat kabi metodi va o‘yinlar.

Mazkur metodlar o‘quvchilarning nafaqat bilimini oshiradi, balki ularda mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z fikrini asoslab bera olish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Akademik litseylarda adabiyot fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘quv materialining qiziqarli va fikrlashga undovchi bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Mustaqil topshiriqlar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va hayotiy tajribalariga tayangan holda tuzilsa, ular asar mazmunini chuqurroq anglay oladilar. Shu bilan birga, mustaqil ishlar o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ma‘naviy dunyosini boyitish va estetik didini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Badiiy adabiyot inson ma‘naviy kamolotida beqiyos ahamiyatga ega. U inson ruhiyatini tarbiyalaydi, yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi tushunchalarni qalbgga singdiradi. Shu bois adabiyot azaldan “hayot darsligi” sifatida e‘tirof etib kelinadi. Har bir badiiy asarda inson taqdiri, uning ichki olami va murakkab kechinmalari tasvirlanadi. Kitobxon esa asarni mutolaa qilish jarayonida voqealar ustida mushohada yuritadi, xulosa chiqaradi va hayotiy tajriba orttiradi.

So‘nggi yillarida yurtimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlarni kitob mutolaasiga jalb qilish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ma‘naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda badiiy asarlarning o‘rni nihoyatda kattadir. Shu uchun akademik litseylar uchun maxsus adabiyot darsliklari yaratilishi dolzarb maslalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Akademik litseylar uchun ishlab chiqilgan namunaviy o‘quv dasturda Habibulla Qodiriyning “Otam haqida”, Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola”, Shukur Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi”, Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, Xurshid Sultanovning “Yo, Jamshid”, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”, Normurod Norqobilovning “Olim o‘g‘il” hikoyalari hamda Tohir Malikning “Alvido, bolalaik”, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarlarini mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilingan.

Ushbu asarlarni o‘rganishda quyidagilardan foydalanish mumkin. Jumladan, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi yuzasidan quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Hikoya nomining ramziy ma‘nosi nimada?
2. Asarda rassom obrazining fojiviy qismati qanday ochib berilgan?
3. Rassomning keyingi yillardagi suratlarida nega tushkun va vahimali manzaralar tasvirlangan?
4. Asardagi ijarachi yigit va rassom obrazlari o‘rtasidagi farq nimada?
5. Yozuvchi nega obrazlarga ism bermagan?
6. Hikoyaning so‘nggi tasvirida maymun obrazi qanday ramziy ma‘no kasb etadi?

7. Birinchi va oxirgi rasmlar o'rtasidagi ziddiyat nimani anglatadi?

Bunday savollar o'quvchini mustaqil fikrlashga, asarning falsafiy va ramziy qatlamlarini anglashga undaydi. Shuningdek, asarni tahlil qilishda personajlar tizimi, kompozitsion qurilish, badiiy detal, ramz va g'oya kabi nazariy tushunchalar bilan bog'liq ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asarini o'quvchilarga o'rgatishda zamonaviy pedagogik metodlar va interfaol texnologiyalardan foydalanish samarali natija beradi. Chunki asarda inson ruhiyati, jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyat, ma'naviy izlanish kabi murakkab masalalar yoritilgan. Shu bois tahlil jarayonida faqat mazmuni aytib berish emas, balki o'quvchini fikrlashga, bahs yuritishga va mustaqil xulosa chiqarishga undash muhimdir.

Quyida asarni o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan ayrim metod va texnologiyalarni ko'rib chiqamiz:

I. "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, o'quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Muvozanat deganda nimani tushunasiz?
2. Inson hayotida muvozanat qanday ahamiyatga ega?
3. Ruhiy va moddiy dunyo o'rtasidagi ziddiyat nimaga olib keladi?
4. Muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadimi?

Bu kabi savollar o'quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantiradi, asarga qiziqish uyg'otadi va tahlil uchun psixologik muhit yaratadi.

II. AKT (axborot-kommunikatsion texnologiyalar) mavzuni o'zlashtirishda mavzuga oid taqdimotlar, audio kitoblar, videolavhalar, elektron xaritalar, onlayn testlardan foydalanish mumkin. Misol uchun qahramonlar haqida slaydlar; asar voqealari ketma-ketligi bo'yicha animatsiyalar; muallif hayoti haqida videoroliklar. Asarni o'qitishda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchini oddiy tinglovchidan faol tahlilchi darajasiga olib chiqadi.

Shuningdek, ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etagani sababli ko'p holatlarda "didaktik o'yinlar" deb yuritiladi. Shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin ta'xologiyalari – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan biri bo'lib, ta'lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'zni, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan

pedagogik o‘yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litseylarda adabiyot fanidan mustaqil ishlarni samarali tashkil etish o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mustaqil mutolaa uchun tavsiya etilgan asarlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tahlil qilish o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati, mustaqil fikrlash, estetik did va ma’naviy barkamollikni shakllantiradi. Shu bois adabiyot darslarini tashkil etishda interfaol metodlardan unumli foydalanish, asarlar yuzasidan tahliliy savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyat. –T.: Yangi asr avladi, 2004.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. –T.: Fan, 1979.
3. Aliyev A. Istiqlol va adabiy meros. –T.: O‘zbekiston, 1997.
4. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Karimov B. Yangililanish sog‘inchi. –T.: Adabiyot jamg‘armasi, 2004.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti adabiyoti manzaralari. –T.: O‘zbekiston, 2008.
7. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
8. Mustaqillik davri adabiyoti. –T.: Adabiyot va san’at, 2006.